

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.E.Madaliyev</b>	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
<b>N.R.Mansurova</b>	
Zamonaviy oliy ta'lilda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari .....	120
<b>M.M.Maxamadjonova</b>	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
<b>I.I.Soliyev</b>	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi .....	132
<b>D.D.Mirzaakbarov</b>	
Koreys tilini mustaqil o'rghanishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li .....	136
<b>A.Y.Axmedov</b>	
Kommunikativ kompetentsiya bo'lajak psixoglarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida .....	141
<b>N.B.Dusimbetova</b>	
Jurnalistika yo'nalishi talabalar kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati .....	146
<b>S.T.Aldasheva</b>	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati .....	151
<b>A.T.Nazarov</b>	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili.....	154
<b>U.K.Rahmonov</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarining estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
<b>S.A.Mahmudova</b>	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
<b>J.O.Amirov</b>	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobilyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
<b>X.O.Pardayeva</b>	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi .....	184
<b>M.Barakayev, M.Nasritdinov</b>	
Ta'limi raqamlashtirish shatroitida o'quvchi-talabalarni nochiziqli fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
<b>Sh.O.Aripov</b>	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiylarining tarixi.....	195
<b>M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova</b>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomilashtirish omillari .....	200
<b>D.T.Nishonova</b>	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
<b>S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov</b>	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish .....	213
<b>X.X.Abdurahmov</b>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
<b>M.M.Turg'unov</b>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi .....	223



УО'К: 378.091.3:510

**ТА'ЛИМНИ RAQAMLASHTIRISH SHATROITIDA О'QUVCHI-TALABALARНИ NOCHIZIQLI  
FIKRLASHGA O'RGATISH IMKONIYATLARI**

**ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НЕЛИНЕЙНОМУ МЫШЛЕНИЮ ЧЕРЕЗ  
ЦИФРОВИЗАЦИЮ ОБРАЗОВАНИЯ**

**OPPORTUNITIES FOR TEACHING STUDENTS NON-LINEAR THINKING THROUGH  
DIGITALIZATION OF EDUCATION**

Barakayev Murod<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, pedagogika fanlari nomzodi,  
dotsent

**Nasritdinov Muslimbek<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Andijon davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada zamonaviy shaxsnı shakllantirishda chiziqli bo'limgan fikrlashning o'rni, unga erishishda matematika fanini o'rni yetarli darajada ochib berilgan. Bugungi kundagi ta'limgi raqamlashtirish davri muhim hisoblnib, bunda fikrlashning asosiy tarkibiy qismlardan biri chiziqli bo'lismiga erishish muhim hisoblanadi. Matematik nuqtai-nazardan chiziqli fikrlash - bu kam sondagi o'zgaruvchilari bo'lgan tenglama yoki tensizlikni ma'lum bir ketma-ketlikda yechish jarayonidir. Bugungi kunda inson hayotiga kirib kelgan robotlar va sun'iy intellekt tizimlari nochiziqli fikrlashga asoslangan bo'lib, ular insonlardan muntazam faoliyatni tortib oladi va olmoqda. Bunday sharoitda har bir kishidan yetarli darajada ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish talab etiladi. Ammo ijodiy fikrlashga ega bo'lmasdan turib, nochiziqli fikrlab bo'lmaydi. Zamonaviy sharoitda nochiziqli fikrlash odamlar ongida ham, fanning bir qator sohalarida ham yetarli darajada tadqiq etilmagan. Hattoki u xavfli hisoblanadi. Shuningdek, hozirgi murakkab zamonaviy dunyoda aksariyat hodisalar va jarayonlarni chiziqli modellar bilan tasvirlab bo'lmaydi. Shuning uchun ham umumiy o'rta maktab va oliy o'quv yurtlari o'quvchi-talabalarida nochiziqli fikrlashni shakllantirishi talab etiladi. Xulosa qilib aytganda, bugungi ta'limgi raqamlashtirish shatroitida biz o'quvchi-talabarni nochiziqli fikrlashga o'rgatmasdan turib ta'lim maqsadlariga erishishni oldindan kafolatlay olmaymiz. Shuning uchun ta'lim maqsadlariga oldindan erishishni kafolatlash esa zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

**Аннотация**

В данной статье достаточно подробно раскрыта роль нелинейного мышления в формировании современной личности, роль математической науки в ее достижении. Сегодняшняя эпоха цифровизации образования считается важной, и важно добиться линейности мышления как одной из основных составляющих. С математической точки зрения, линейное рассуждение — это процесс решения уравнения или неравенства с небольшим количеством переменных в заданной последовательности. Роботы и системы искусственного интеллекта, вошедшие сегодня в жизнь человека, основаны на нелинейном мышлении, и они забирают у людей рутинную деятельность. В таких условиях от каждого требуется наличие достаточно высокого уровня творческого мышления. Но невозможно мыслить нелинейно, не обладая творческим мышлением. В современных условиях нелинейное мышление недостаточно изучено в сознании людей и в ряде областей науки. Это даже опасно. Кроме того, в сегодняшнем сложном современном мире большинство событий и процессов невозможно описать линейными моделями. Именно поэтому необходимо формировать нелинейное мышление в общобразовательных школах и высших учебных заведениях. Короче говоря, в условиях сегодняшней цифровизации образования мы не можем гарантировать достижение образовательных целей, не научив учащихся мыслить нелинейно. Поэтому заблаговременное обеспечение достижения образовательных целей является одним из основных принципов современного образования.

**Abstract**

This article reveals in sufficient detail the role of nonlinear thinking in the formation of a modern personality, the role of mathematical science in achieving it. Today's era of digitalization of education is considered important, and it is important to achieve linearity of thinking as one of the main components. From a mathematical point of view, linear reasoning is the process of solving an equation or inequality with a small number of variables in a given sequence. Robots and artificial intelligence systems that have entered human life today are based on non-linear thinking, and they take away and take away routine activities from people. In such conditions, everyone is required to have a sufficient level of creative thinking. But it is impossible to think non-linearly without having creative thinking. In modern conditions,

*nonlinear thinking is insufficiently studied in the minds of people and in a number of fields of science. It's even dangerous. In addition, in today's complex modern world, most events and processes cannot be described by linear models. That is why it is necessary to form non-linear thinking in general education schools and higher educational institutions. In short, in today's digitalization of education, we cannot guarantee the achievement of educational goals without teaching students to think non-linearly. Therefore, ensuring the achievement of educational goals in advance is one of the basic principles of modern education.*

**Kalit so'zlar:** Fanlarni matematiklashtirish, chiziqli fikrlash, chiziqli bo'lmagan fikrlash, dunyoning ilmiy manzarasi, tartibli tuzilmalar, kompetentsiyalar.

**Ключевые слова:** Математизация наук, линейное мышление, нелинейное мышление, научная картина мира, упорядоченные структуры, компетенции.

**Key words:** *mathematization of sciences, linear thinking, nonlinear thinking, scientific picture of the world, ordered structures, competencies.*

## KIRISH

Ma'lumki, matematikani o'rganish va o'rgatishning asosiy vazifalaridan biri – bu o'quvchilarda turli xil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat bo'lib kelgan va bugungi kunda ham bu muhim hisoblanadi. Ayniqsa, ta'limni raqamlashtirish davrida muhim hisoblnib, bunda fikrlashning asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblangan: fikrlashning chiziqli bo'lishiga erishish muhim hisoblanadi.

Bugungi raqamlashtirish asri deb atalayotgan bir vaqtida fanlarni matematiklashtirish natijasida, ya'ni matematikaning g'oyalari, metodlari va bugungi kunga kelib erishilgan yuqori darajadagi yutuqlari asosida fanda: **axborot nazariyasi, kibernetika, sinergetika, sun'iy intellekt** kabi fanlararo tushunchalar paydo bo'ldi. Qisqacha qilib aytganda mazkur tushunchalarning barchasi fanlarning matematiklashuvi natijasida paydo bo'ldi. Turli fan sohalarini matematikalaşuvni natijasida: **model, operatsiyalar, munosabatlар, izomorfizm, algoritm** kabi tushunchalarni o'z ichiga oladigan yangi fanlararo kategoriya (toifa) lar paydo bo'ldi va bular zamonaviy raqamli dunyoda matematika va kompyuterlarning noyob imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi tadqiqot madaniyatini shakllanishiga olib keldi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fanlarni matematiklashtirish davriga kelib kibernetika, kompyuter texnologiyalari va internet tizimi tez sur'atlarda rivojlandi. Bu ilmiy fikrlashning yangi metodlarining shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi. Mazkur jarayonda kompyuterni paydo bo'lishi va uning inson va jamiyat hayotining barcha jabhalariga kirib kelishi butun ta'lif tizimiga, jumladan uning maqsadlari, mazmuni, metodlari, shakkiali va vositalariga bevosita ta'sir ko'rsatdi, Bular esa fanda inqilobga olib keldi.

Yuqoridagilar zamonaviy raqamli dunyoda uzlusiz ta'lif tizimining barcha bosqichlari bitiruvchilari oldiga yanggi talablar qo'ydi. Bu esa ularda shakllantirilishi zarur bo'lgan kompetentsiyalarni o'zgarishiga olib keldi. Jumladan, bugungi kunda har bir mutaxassis kasbiy kompetentsiyalarining tarkiybiy qismi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

*fanlararo sintez va matematik modellashtirish metodologiyasi asosidai kasbiy faoliyati jarayonida uchraydigan muammolarning yechimlarini samarali topa olishi;*

*yuqori darajadagi mantiqiy va tanqidiy fikrlashga ega bo'lishi;*  
*rivojlangan analitik qobiliyatlarga ega bo'lishi talab etiladi.*

## NATIJA VA MUHOKAMA

Ma'lumki, matematika–barcha davrlarda o'quvchilarda turli fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib kelgan. Jumladan, mantiqiy, algoritmik, kombinatorik, funktsional, majoziy-geometrik (vizual) kabi fikrlash turlarini rivojlantirish vositasi bo'lib kelgan va u bugungi kunga kelib yanada dolzarb mavzuga aylandi.

Zamonaviy psixolog olimlar tadqiqot ishlariining tahlillari shuni ko'rsatadiki, keying yillarda keng tarqalgan: *tanqidiy fikrlash, divergent fikrlash, lateral fikrlash kabi fikrlash turlariga ega bo'lgan insonlardagina ijodiy va nostandart fikrlashga ega bo'lishadi va bunday fikrlashlar ularning aqliy imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi* – deb hisoblashadi. Mazkur fikrlash turlarining afzallikgi – ularning barchasida *fikrlashning chiziqli emasligi*.

Masalan. "**Lateral fikrlash**" kontseptsiyasi asoschisi Edvard De Bono o'z tadqiqot ishlariida: chiziqli bo'lmagan fikrlash bolalarda tez va eng oson rivojlanishi ta'kidlab o'tgan. Bunda u: *yosh bolalarning ongi hali shablonlar bilan tiqilib qolmaganligi, ularning sezgilarga ishonishi, turli kulgili ko'rinishdan qo'rqmasliklari muhim o'rinn tutadi* - deb hisoblaydi [1].

## PEDAGOGIKA

Endi chiziqli bo'Imagan fikrlash nima ekanligiga to'xtalib o'taylik. Ma'lumki, bugungi kunda umumiy o'rta maktab va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarida asosan **chiziqli fikrlash** rivojlantirilmoqdalar. Bunday tarzdagi fikrlashlar mexanika qonunlariga xos hisoblanadi. Bunday turda fikrlash: asta-sekin paydo bo'ladi va ular **muqobilsiz, bir chiziqli, bir qiyamatli bashorat qilinadigan, tartibsiz** kabilardan iborat bo'lib, bunda dunyo qattiq sabab va oqibat, chiziqli aloqalar bilan bog'liq bo'ladi [2].

**Chiziqli fikrlash**, odatda jarayon bo'lib, unda **har doim ma'lum bir nuqtada nima sodir bo'lganligini yoki sodir bo'lishini mutlaq aniqlik bilan hisoblash mumkin bo'ladi**. Odamlar, odatda, ongli ravishda yoki ongsiz ravishda, hozirgi yoki yaqin o'tmishdagi kelajakka chiziqli davom ettirish (chiziqli ekstrapolyatsiya qilish) orqali bashorat qilishadi.

Bizga ma'lumki, matematikada **chiziqlilik tushunchasi** turli ma'nolarda uchraydi. Jumladan, maktab matematika kursida o'rganiladigan **chiziqli funktsiya** tushunchasiga qo'shimcha ravishda **chiziqli fazo, chiziqli operator** kabi tushunchalar ham qaraladi va chiziqlilik **soddalik ideallaridan** biri hisoblanib, u ko'pgina hollarda **cheksiz yaqinlashishda** samarali bo'ladi. Shuning uchun ham matematiklar va fiziklar haqiqiy muammolarni chiziqli xatti-harakatlarga olib kelishga harakat qilib kelishgan.

Ma'lumki, XX asrga kelib dunyoning ilmiy manzarasi o'zgara boshladi. Natijada determinizm va absolyutizatsiya (mutloqlashtirish) dan voz kechilgan holda o'z-o'zini tashkil etish g'oyalarini tan olish va betartiblikning konstruktiv (ijodiy) roli bilan ajralib turadigan dunyoning **post-klassik manzarasi** paydo bo'ldi [3].

**Nochiziqlilik** – post-klassik nazariyada eng ko'p ishlatiladigan tushunchalardan biri bo'lib, u falsafiy ma'noda u:

*Ma'lum bir hodisada qo'shimchalar va mutanosiblik shartlarining buzilishi, ya'ni ta'sirlar yig'indisining natijasi ularning natjalari yig'indisiga teng emas;*

*natija harakatlarga mutanosib emas;*

*butun narsa uning qismlarining yig'indisiga teng emas;*

*bashoratlar jarayonlarning nochiziqliligi sharoitida ishonchli va yetarli bo'lmaydi va h.k. [3].*

Matematik nuqtai-nazardan chiziqli fikrlash - bu kam sondagi o'zgaruvchilari bo'lgan tenglama yoki tensizlikni ma'lum bir ketma-ketlikda yechish jarayonidir.

Matematik nuqtai-nazardan chiziqli fikrlash quyidagi masalarda keltirilgan vaziyatlarda namayon bo'ladi:

1) *Uyni ta'mirlash paytida necha metr devor qog'ozni kerakligini hisoblashda;*

2) *To'satdan gaz pechkani o'chirishni yoki kimgadir telefon qilishni unutib qo'yganda;*

3) *Kimgadir minnatdorchilik bildirish yoki kimdandir kechirim so'rashni unutgan paytda va h.k.*

4) *Davlat tuzilmalari soliqqa tortishning yangi tizimini joriy etishda ham chiziqli fikrlash muammosiga duch kelishadi.*

**Masalan.** Frantsiyada progressiv shkala joriy etilganda, ya'ni yuqori daromadli odamlar ko'proq soliq to'lashi joriy etilishi davlat xazinasiga soliplardan kelib tushadigan tushumlar kamayishiga boy aholining mamlakatdan chiqib ketishiga olib keldi.

**Izoh.** Bunday vaziyatlarda bir ozgina noaniqlik kiritilsa ham chiziqli fikrlash xatolar va yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Bunday vaziyatlarda xatoliklar va yo'qotishlarga yo'l qo'ymasligi uchun tizimli va chiziqli bo'Imagan fikrlay olish ham talab etiladi. Yuqoridagilardan ko'rindiki, bugungi tez o'zgaruvchan dunyoda chiziqli fikrlashdan voz kechish mumkindek tuyuladi. Ammo chiziqli fikrlash doimo saqlanib qoladi. Chunki bunday fikrlash osonroq bo'lib, bunday fikrlashda kam energiya sarflanadi. Shungdek, bunday fikrlash oddiy bo'lib, bizning dangasa miyamiz undan voz kechishni o'ylamaydi va chiziqli fikrlash biror xavfni aniqlashga hamda stress holatda ham qaror qabul qilishga imkon beradi.

Umuman, **chiziqli fikrlash** - faktlardan foydalangan holda ketma-ket, mantiqiy, tartibga solingan, formulali fikrlashdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar asosan nochiziqli bo'lib, u bizning hayotimiz hisoblanadi. Chunki biz xohlasmizmi, xohlasmaymizmi - ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilvosita va bevosita ishtirokchisimiz. Ammo ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar tahlikali bo'lib, ularda turli noaniqliklar, ko'plab xavf-xatarlar mavjud bo'ladi va biz o'zimiz xohlasak ham, xohlamasak ham ularni ishtirokchisi bo'lamiz. Ayniqsa, bozor

iqitisodiyoti tizimi sharoitida bular yaqqol namoyon bo'ladi va mazkur tizimda nochiziqli fikrlash qobilayti har inson hayotida muhim o'rinn tutadi [4].

Bugungi kunda inson hayotiga kirib kelgan robotlar va sun'iy intellekt tizimlari **nochiziqli fikrlashga** asoslangan bo'lib, ular insonlardan muntazam faoliyatni tortib oladi va olmoqda. Bunday sharoitda har bir kishidan yetarli darajada **ijodiy fikrlash** qobiliyatiga ega bo'lish talab etiladi. Ammo ijodiy fikrlashga ega bo'lmadan turib, **nochiziqli fikrlab** bo'lmaydi.

Yuqoridagilardan ko'rindiki, bugungi kunda jamiyatning har bir a'zosi nochiziqli fikrlash qobiliyatiga ega bo'lmadan turib mehnat va xizmatlar bozorida o'ziga munosib o'rinn topa olmaydi.

Zamonaviy sharoitda **nochiziqli fikrlash** odamlar ongida ham, fanning bir qator sohalarida ham yetarli darajada tadqiq etilmagan. Hattoki u xavfli hisoblanadi. Shuningdek, hozirgi murakkab zamonaviy dunyoda aksariyat hodisalar va jarayonlarni **chiziqli modellar** bilan tasvirlab bo'lmaydi. Shuning uchun ham umumiyl o'rta maktab va oliy o'quv yurtlari o'quvchi-talabalarida **nochiziqli** (chiziqli bo'lmagan) **fikrlashni** shakllantirishi talab etiladi.

Dunyo murakkab tizim bo'lib, u shu darajada tartibsizki, odamlarga juda tartibsiz ko'rindi. Unda har bir odam omon qolishi uchun moslashuvchan va tizimli fikrlay oladigan bo'lishi kerak. Bu xususiyatlar nochiziqli fikrlashga xos bo'lib, u chiqli fikrlashga to'laligicha teskari bo'ladi.

Nochiziqli fikrlash qobiliyatini shakllantirish bo'yicha quyidagilarga erishish talab etiladi:  
*nostandard yo'llarni izlashni;*

*dunyoda beqarorlik va muvozanatsizlik, tasodifiylik asosiy rol o'ynashini tushunishib yetishi; chiziqli bo'lmagan jarayonlarning xatti-harakati o'zgaruvchan va aniq oldindan aytib bo'lmaydigan jarayon ekanligini tushunib yetishlari kerak.*

**Tahlillar shuni ko'rsatadiki**, uzlusiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida nochiziqli fikrlashga o'rgatish borasida qilinishi kerak bo'lgan ishlar yetarli hisoblanib, mazkur kamchiliklarni bartaraf etishning eng asosiy usullaridan biri – bu matematikani o'qitishda chiziqli bo'lmagan tuzilmalarni, ayniqsa tartibli tuzilmalarni o'rganish muhim hisoblanadi.

**Masalan.** Umumiyl o'rta ta'lim maktabi matematika kursida o'quvchilar "**Bo'linish munosabati**" mavzusini o'rganish jarayonida nochiziqli fikrlashga duch kelishadi. Bo'linish munosabatlari yordamida ko'pgina muhim tushunchalarni nochiziqli bo'lgan tartibli tuzilmalar yordamida tasvirlash mumkin. Bunday turdag'i tartib munosabatlarini o'rganishda o'quvchilarning e'tiborini uning chiziqli tartibga o'xshash bo'lgan va o'xshash bo'lmagan tomonlarini aniqlashga qaratish muhim hisoblanadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi **ta'limni raqamlashtirish shatroitida** biz o'quvchi-talabalarni nochiziqli fikrlashga o'rgatmasdan turib ta'lim maqsadlariga erishishni oldindan kafolatlay olmaymiz. Shuning uchun ta'lim maqsadlariga oldindan erishishni kafolatlash esa zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Эдвард де Боно. Искусство думат: Латеральное мышление как способ решения сложных задач. – Издво «Алпина Паблишер», 2015, 172 стр.
- Barakayev M. va b. Matematika o'qitish metosikasi (I qism, Umumiyl metodika). – T.: "Fan va texnologiya", 2017, 328 bet.
- Ермаков В.Г. Философские аспекты согласования личностной направленности образования и его сифровизации // Современные образовательные Web-технологии в реализации личностного потенциала обучающихся: сборник статей участников Международной научно-практ. конф. (20-21 мая 2020 г.) – Арзамас, Арзамасский филиал ННГУ, 2020. С. 14-19.
- Akmalov A. A., Zuvidullayeva M. S. MATEMATIKA TA'LIMIDA FANLARARO ALOQADORLIK DAN FOYDALANIB O'QITISHNI TASHKIL ETISH //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. CSPI conference 3. – C. 896-899.